

TARJIMADA “EKVIVALENTLIK” TURLARI VA DARAJALARI

Samigova Xushnuda Batirovna

O‘ZDJTU professori, (DSc)

Guo Tianyu

*“China GEZHOUBA Group International Engineering
Central Asia” korxonasi xodimi (PhD) (Xitoy)*

Turli nutqlarga oid tarjima jarayonida ekvivalentlik muammosi hali ham o‘z yechimini talab qiluvchi muammolardan hisoblanadi. Tarjimoni asl nusxaga moslashtirish uchun aynan qanday tarjima qilish zarurligi hozirgacha ham tarjimonlarni o‘ylantiradigan masala hisoblanadi va ushbu ish mavzusi doirasida izlanish olib borishni dolzarb masala sifatida taqozo etadi. Maqolaning maqsadi tarjimada “ekvivalentlik” turlariiga oid masalaga yanada kengroq oydinlik kiritishdan iborat.

Olimlar ushbu tushunchani quyidaicha ta’riflaydilar: 1. Bir–biriga tenglashtirilgan birliklarning semantik umumiyliigi. 2. Belgilar va matnlar orasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Matnlarning ekvivalentligi ularning lingvistik ko‘rinishlaridan tashqari madaniy ekvivalentlikni ham o‘z ichiga oladi. Adekvatlikdan farqli o‘laroq, ekvivalentlik natijaga yo‘naltirilgan.² Ushbu ta’riflardan tarjimada "ekvivalentlik" tushunchasini ikki tildagi teng ma’noga ega, teng miqdordagi matn tariqasida tushunanz. Quyidagi manba³ esa ekvivalentlikning turlarini quyidagicha klassifikasiya qiladi:

1. **Leksik ekvivalentlik** – manba matnda qo‘llanilgan so‘zlarning to‘liq mos kelishi va ularning ko‘rsatma tilga tarjimasi.

Masalan, *he laughed – u kuldi* – misolida "u", "kuldi" so‘zlari ingliz tilidagi *he laughed* so‘zlariga mullaq mos keldi.

2. **Grammatik ekvivalentlik** – tarjimada manba matnning grammatik tuzilishining saqlanishi.

Masalan, *Bob and Jim are walking – Bob va Jim sayr qilishyapti* misolida tarjimada gapning grammatik strukturasi saqlanib qolganligini kuzatamiz.

3. **Semantik ekvivalentlik** – tarjimada asl matn mazmunining saqlanishi.

² Нелюбин Л. 2003. Толковый переводоведческий словарь. – Moscow: Flinta: Nauka, 2003. – С. 253-254; Бархударов, Л. С. Язык и перевод / Л. С. Бархударов. – М., 1973; Комиссаров В. Н. Современное переводоведение / В. Н. Комиссаров. – М., 1999; Федоров, А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): учеб. пособие для ин-тов и факультетов иностр. языков / А. В. Федоров. – 5-е изд. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ; М.: ООО «Издательский Дом «ФИЛОЛОГИЯ ТРИ», 2002;

³ Комиссаров В.Н. Общая теория перевода: проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых. - М., 1999.

² Латышев. Л. К. Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания. – М., 1988; Николаиди О.В. // Понятие древности и эквивалентности при переводе различных торговых аннотаций с английского языка на русский «Научный Вестник» №1. – 2002, май.



Masalan, *help yourself – oling, oling* misolida so‘z va grammatik ekvivalentlikka oid hususiyat kuzatilmaydi, balki ma’no saqlanib qoladi.

4. **Pragmatik ekvivalentlik** – tarjimada manba matnining niyati, maqsadi va ta’sirining saqlanib qolishi.

Teacher said: it is too cold in the room – o‘zbek tiliga *ustoz talabalarga oynani yopushga ishora qildi* misolida tarjimon matn orqasida yashiringan ma’noni e’tiborga olib tarjimani berishga harakat qiladi. Kontekstdan hona sovub ketti degan jumlaning eshitgan oynaga yaqin o‘tirgan talabaga oynani yopsak yahshi bo‘larmidi degan murojaat yoki taklif qilingan edi.

5. **Madaniy ekvivalentlik** – tarjimada manba matnining madaniy xususiyatlari va kontekstining saqlanishidir, maqsad til auditoriyasi uning mazmuni va ta’sirini tushunishga qaratilishidir.

It’s raining cats and dogs – *chelaklab quyiyapti* misolida, kontekst va madaniy xususiyat saqlanib qoladi, bu yerda manba matnida juda kuchli yomg‘ir degan ma’noni anglatuvchi inglizcha ibora ishlatiladi va tarjima xuddi shu ma’lumotni o‘zbek tilidagi *chelaklab quyiyapti* iborasi yordamida yetkazadi.

Qudrat Musaev⁴ asliyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asosan quyidagicha namoyon bulishini ta’kidlaydi:

I. **Ekvivalentlikning birinchi turida** tarjimalarning asliyatga uygunligi ko‘z ilg‘amas darajada namoyon bo‘ladi. Mazkur tarjima turida asliyat va tarjima o‘rtasidagi munosabaglar asosan ushbu ko‘rinishlarga ega bo‘ladi: a) leksik tarkib va sintaktik qurilishdagi nomuvofiqlik; b) ikki holatda ham bir xil fikr bayon etilayotganligiga qaramasdan, asliyat va tarjimada ifoda etilgan axborot o‘rtasida bevosita mazmuniy yoki mantiqiy bog‘lanishning ko‘zga tashlanmasligi; v) asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasidagi umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past.

She turned her nose in the air // Qiz yigitga nafrat ko‘zi bilan qarab qo‘ydi.

Bu yerda asliyat va tarjima matnlari orasida mazmuniy umumiylik mavjudligi tufayli ekvivalentlik yuzaga kelgan. Bunday tarjimalarni asliyatlari bilan qiyoslash shuni kursatadiki, ular odatda birlamchi matnlar tarkiblaridagi leksik va grammatik birliklar ma’no va shakllaridan kelib chiqib, «bevosita» amalga oshirilmaydi, balki matnlar tarkiblarida yashirin holda mavjud bo‘lib, butun boshli ifodalar asosida oydinlashadigan «hosila» mazmunlar asosida yaratiladi. «Hosila» mazmun kupincha «nazarda tutilgan» yoki «ko‘chma» mazmun deyiladi. Bunday hollarda «bevosita» mazmun chetda qoladi.

⁴ Musaev Кудрат. Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА, «Фан» нашриёти, 2005. – 352 б.



II. **Ekvivalentlikning ikkinchi turida** tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan til vositalari ma'nolarining bir xil emasligi bilan izohdanadi. Bu guruhda asliyat bilan tarjima matnlarini tashkil etadigan ko'pchilik so'z va sintaktik qurilmalar o'rtasida bevosita yaqinlik ko'zga tashlanmasa—da, ikki til matnlari ekvivalentlikning birinchi turiga nisbatan mazmunan ko'proq o'xshashdir. Masalan, «*Do you take me for a fool?*» – «*Meni yosh bola deb o'ylayapsizmi?*» va «*He answered the telephone*» – «*U go'shakni ko'tardi*» kabi ifodalarda so'z har xil hodisalar tasviri asosida o'xshash tasavvur hosil bo'lishi haqida ketadi. Asliyat va tarjima orasidagi umumiylik shundan iboratki, birinchi holat so'zlovchining suhbatdoshi tomonidan aytilgan fikrga javoban hayajonli munosabatini bildiradi. ikkinchi holatda esa o'zgacha lisoniy vositalardan tashkil topgan asliyat va tarjima matnlari aslida bir xil xarakterni tasvir etadi, chunki telefonda go'shakni kutaribgina gaplashish mumkin. Ushbu ekvivalentlik turida fikr turli tillarda turlicha ifoda etilsa—da, bir xil vaziyat tasviri yaratiladi. Bunday hol muloqot ishtirokchilarining g'ayrilisoniy tajribalari asosida yuzaga keladi.

III. **Ekvivalentlikning uchinchi turida** asliyat va tarjima matnlari orasida quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi: ikki tilning mazmunan o'zaro mos ifoda vositalari leksik tarkib va goho sintaktik qurilish jihatlaridan to'la uyg'un bo'lmaydilar.

Bunday qisman nomuvofiqlikning tarjimada aks ettirishi harfxo'rlikka olib kelmagani holda, mazmuniy–vazifaviy uyg'unlikni yuzaga keltiradi:

1. *People who have tried it tell me... // Ayrim odamlar o'z tajribalaridan kelib chiqib ta'kidlaydirlarki...*

2. *That will not be good for you. // Bu sizni yaxshilikka olib kelmaydi.*

IV. **Ekvivalentlikning to'rtinchi turida asliyat** va tarjima o'rtasidagi munosabat ikki til matnlari leksik tarkiblarining yanada ko'proq o'xshashligi bilan izohlanadi, ya'ni asliyatdagi ko'pchilik so'zlarga tarjima tilida mazmunan yaqin so'zlarni qidirib topish, shuningdek, tarjima tilida asliyatdagi ifoda vositasi sintaktik qurilishiga mos sintaktik qurilishli ifoda vositasidan foydalanish zarurati paydo bo'ladi:

1. *I told him what I thought of her // Men unga qiz haqidagi fikrimni aytdim.*

2. *Ne was never tired of old songs // Eski ashulalar hech qachon uning joniga tegmas edi.*

V. Vanihojat, **beshinchi turda** asliyat va tarjima matnlari orasidagi ekvivalentlik yuqori darajada namoyon buladi:

1. *I study at the University // Men universitetda o'qiyman.*

2. *The house was sold for 10 thousand dollars // Uy 10 ming dollarga sotilgan edi.*

Ushbu ekvivalentlik turi ikki til matnlarining bir xil ko‘rinishga egaligi, leksik tarkiblarining to‘la o‘xshashligi, asliyat asosiy qismlarining tarjimada batamom saqlanishi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, asliyat va tarjima orasidagi mazmuniy ekvivalentlik munosabatlari tahlil qilish bunday munosabatlarning asosan besh guruhdan iborat ekanligini tarjimashunos olim o‘z ishida ko‘rsatib o‘tadi.

Bizning fikrimizga ko‘ra, tarjimadagi ekvivalentlik deganda tinglovchilarga bir xil ta’sir darajasini saqlab qolgan bir tildagi matnning ikkinchi tildagi ma’nosini to‘g‘ri yetkazish tushuniladi. Bu manba matnning mohiyatini yoki madaniy kontekstini yo‘qotmasdan, mo‘ljallangan xabarni to‘g‘ri yetkaza oladigan tegishli so‘zlar, iboralarni topishni o‘z ichiga oladi.

Demak yiqoridagi fikrlardan xulosa qilishimiz mumkinki, tarjimadagi ekvivalentlik deganda tinglovchilarga bir xil ta’sir darajasini saqlab qolgan bir tildagi matnning ma’nosini ikkinchi tilga to‘g‘ri va teng ma’noda yetkazish tushuniladi. Tarjimada ekvivalentlik muloqot maqsadi darajasi, vaziyatni tavsiflash darajasi, talaffuz darajasi, xabar darajasi, lisoniy belgilar darajasiga ko‘ra tanlanadi. Ekvivalentlik leksik, grammatik, semantik, pragmatik va madaniy turlari mavjud ekanligi bilan xarakterlanadi.

Adabiyotlar:

1. Ушаков, Д. Н. Толковый словарь русского языка: в 4 т. [Текст] / под ред. Д. Н. Ушакова. – М.: Астрель, 2000, 1395-1396.
2. Словарь современного русского литературного языка, 1965. – С. 1734.
3. Современный словарь иностранных слов. – 1994. – С. 700.
4. Нелюбин Л. 2003. Толковый переводоведческий словарь. – Moscow: Flinta: Nauka, 2003. – С. 253-254; Бархударов, Л. С. Язык и перевод / Л. С. Бархударов. – М., 1973; Комиссаров В. Н. Современное переводоведение / В. Н. Комиссаров. – М., 1999; Федоров, А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): учеб. пособие для ин-тов и факультетов иностр. языков / А. В. Федоров. – 5-е изд. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ; М.: ООО «Издательский Дом «ФИЛОЛОГИЯ ТРИ», 2002;
5. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода: проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых. – М., 1999; Комиссаров В. Н. Слово о переводе. М. 1973; Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М 2004; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М., 1990.
6. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода: проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых. – М., 1999.
7. Латышев. Л. К. Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания. – М., 1988; Николаиди О.В. // Понятие древности и эквивалентности



при переводе различных торговых аннотаций с английского языка на русский
«Научный Вестник» №1. – 2002, май.

8. <http://www.vedu.ru/bigencdic/73055/>

<https://study-english.info/equivalence.php>